



VATANIMIZNING YORQIN KELAJAGI, PORLOQ ISTIQBOLI YOSHLARNING QO'LIDADIR

Moxinur Noryigitova

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7157498>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 04th October 2022

Online: 07th October 2022

KEY WORDS

yorqin kelajak, porloq istiqbol, aqliy faoliyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurt kelajagi haqidagi qarashlar va bugungi kunga bo'lgan shukronalik yoritib berilgan. Maqola davomida izchil fikrlar hamda mulohazalar berib o'tilgan.

Darhaqiqat, Vatanimizning yorqin kelajagi, porloq istiqboli, albatta, yoshlarning qo'lidadir. Vaqt o'tgani sayin fikrlar sayqallanadi, yangi dasturlar ishlab chiqiladi va buning ixtirochilari shubhasiz yoshlar bo'ladi. Bugungi yoshlarning dunyoqarashi qanday bo'lsa, ular kelajakni shunday shakllantiradi. Nega bugun butun dunyo kitob o'qish targ'ibotini eng yuqori darajada yo'lga qo'ymoqda? Chunki kitob mutolaasi inson aqliy faoliyatini tezlashtiradi. Shuning uchun ham yurtimizda kitob o'qiganga qimmatbaho sovg'alar, xatto avtomobillar sovg'a qilinmoqda. Men esa bunday mamlakatda tug'ilganimdan benihoya hursandman. Ayniqsa, zamonaviy adabiyotlarni o'qib, dunyodagi ba'zi davlatlar bilan yashab turgan tinch, osoyishta hayotimni solishtiraman va shukrona keltiraman. Bizning yurtda qo'llarga kitob tutqaziladi, farzandlari til o'rganishi uchun ota-onalar ko'plab mablag' sarflasalarda, mamnun bo'ladilar. Bundan ortiq baxt bor ekanmi?! Butun O'zbekiston "O'qi!" deya zafarli marralar sari borishni undab turganda, biz

yoshlar albatta, buni to'g'ri anglaymiz va harakat qilmoqdamiz.

Men ham talabalik gashti bilan birgalikda, gardanimdagi mas'uliyatni his etyapman. Vatanimiz taraqqiyoti, dunyoning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin olishi, ko'p jihatdan unib-o'sib kelayotgan men kabi yosh avlodning salohiyati, bilimga chanqoqligi, harakatchanligi va ilm-fan cho'qqilarini zabt etishiga bog'liq.

Davlatimiz tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida ko'plab qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida ijtimoiy-huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga bilim va kasb o'rganishga ixtiyori va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar uchun "Yoshlar daftari" tizimi joriy etildi. Bundan ko'zlangan maqsad uyushmagan yoshlarning ezgu orzu-istaklarini ro'yobga chiqarishdir. Shunday ekan, yoshlar jamiyatimizning har bir jabhasida o'z



bilimlari bilan faol ishtirok etib, Xalqimiz, Prezidentimiz ishonchini oqlashiga ishonaman.

Bugungi kunda talaba sifatida men shuni aytolamanki, talabalarning bilim olishi va izlanishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratilgan. Ular uchun turli xil nomdor stipendiyalar joriy etilgan bundan

ko'zlangan maqsad, albatta, ularni ilmga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish va ularni rag'batlantirishdir. Bu sharoitlarning barchasi uchun Prezidentimizga kattadan katta rahmat aytamiz va kelgusida bularning barchasini oqlashga so'z beramiz!

References:

1. Marifat.uz
2. Brightuzbekistan.uz
3. iiv.uz